

BOBURNOMA ASARI HAQIDA MAQOLA

G`ulomova Zahro Davlatjon qizi***O`zbekiston Milliy pedagogika universitetiTarix fakulteti II bosqich talabasi**(+998947463353)**zahrogulomova40gmail.com*

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yozilgan “Boburnoma” asaridagi voqealar qisqacha tahlil qilinadi. Ya`ni XV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrning birinchi o`ttiz yilligida Boburiylar sulolasi haqida ma`lumotlar keltiriladi. Boburiylar sulolasining yorqin vakili, ham shoh, ham shoir bo`lgan Zahiriddin Muhammad Boburning bolalik yillari, 12 yoshida otasining o`rniga hokimyatga kelishi, Farg`ona viloyatini boshqarishi haqida, davlat ishlarini bajarishda onasi Qutlug` Nigor xonimga tayanishi haqida ma`lumotlar berilgan. Boburiylar davrida Movarounnahrda shaharlar, jumladan Andijon haqida qiziqarli ma`lumotlar qayd etilgan. Bobur Mirzoning Samarqandga qilgan uch marta yurishi, mag`lubiyatlari, Kobulga ketishi va u yerda mustahkam o`rnashishi haqida ham fikrlar mavjud. Hindistonni egallashi uchun harakati, u yerda kuchli Boburiylar imperiyasiga asos solishi haqida ma`lumotlar aniq keltirilgan. Shu bilan birga asarda o`sha davrdagi madaniyat ham yoritib berilgan hisoblanadi.

**TAYANCH SO`ZLAR:** Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburnoma, Umarshayx Mirzo, Qutlug` Nigor xonim, Farg`ona, Andijon, Samarqand, Hindiston, Kobul, Shayboniyxon, Ubaydulloxon.

АННОТАЦИЯ: В данной статье кратко анализируются события, описанные в произведении «Бабурнама» Захириддина Мухаммада Бабура. То есть, приводятся сведения о династии Бабуров во второй половине XV века и в первые тридцать лет XVI века. Рассказывается о детстве Бабура Мирзы, яркого представителя династии Бабуров, короля и поэта, о его восшествии на престол в возрасте 12 лет, об управлении Ферганской областью и о его зависимости от матери, Кутлуг Нигар Ханум, в ведении государственных дел. Приводятся интересные сведения о городах Трансоксианы, включая Андижан, в период правления Бабуров. Также представлены сведения о трёх походах Бабура Мирзы в Самарканд, его поражениях, отъезде в Кабул и прочном заселении этого города. Чётко изложены сведения о его стремлении завоевать Индию и создании там могущественной империи Бабуров. В то же время произведение проливает свет и на культуру того времени.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Захириддин Мухаммад Бабур, Бабурнама, Умаршейх Мирзо, Кутлуг Нигор Хан, Фергана, Андижан, Самарканд, Индия, Кабул, Шайбани Хан, Убайдулла Хан.

ANNOTATION: This article briefly analyzes the events in the work "Baburnama" written by Zahiriddin Muhammad Babur. That is, it provides information about the Babur dynasty in the second half of the 15th century and the first thirty years of the 16th century. The childhood of Babur Mirza, a bright representative of the Babur dynasty, both a king and a poet, is given, information about his succession to power at the age of 12, his administration of the Fergana region, and his reliance on his mother, Kutlug Nigar Khanum, in carrying out state affairs. Interesting information is recorded about the cities of Transoxiana, including Andijan, during the Babur period. There are also ideas about Babur Mirza's three campaigns to Samarkand, his defeats, his departure to Kabul and his strong settlement there. Information about his movement to conquer India and the foundation of the powerful Babur empire there is clearly presented. At the same time, the work also sheds light on the culture of that time.

KEYWORDS: Zahiriddin Muhammad Babur, Baburnama, Umarshaykh Mirzo, Kutlug` Nigor Khan, Fergana, Andijan, Samarkand, India, Kabul, Shaybani Khan, Ubaydullah Khan.

O`zbek mumtoz adabiyotining XV asr oxiri, XVI asr boshlarida yashab ijod etgan atoqli namoyondalaridan biri Zahiriddin Muhammad Bobur edi. Buyuk sarkarda, davlat arbobi va shoir bo`lgan Zahiriddin Muhammad Bobur qisqagina umri davomida ham o`zidan buyuk ilmiy meros qoldira oldi. Undan qolgan ijodiy merosning eng muhim va eng yirigi O`rta Osiyo, Afg`oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, geografiasiga oid nodir va qimmatli ma`lumotlarni o`z ichiga olgan va o`sha davr o`zbek mumtoz adabiyoti va adabiy tilining yorqin namunasi bo`lgan asar "Boburnoma" hisoblanadi. Bu asar mazmunining rang-barangligi, juda katta va qimmatli ma`lumotlarni o`z ichiga olishi, yozilish uslubining go`zalligi XVIII asr, ayniqsa, XIX asr sharqshunos olimlarining diqqatini o`ziga tortgan, uning qo`lyozma nusxalari izlana boshlagan va g`arb tillariga tarjima qilishga kirishilgan.

"Asarning nomi "Boburiya" bo`lsa-da, uni "Voqeanoma", "Tuzuki Boburiy", "Voqeoti Boburiy" deb atadilar, keyinchalik asar "Boburnoma" degan nom bilan mashhur bo`lib ketdi¹". Boburnoma eski o`zbek (chig`atoy) tilida yozilgan memuar shaklidagi tarixiy asar hisoblanadi. Unda Temuriylar saltanati tarixining XV asr oxirgi choragi va XVI asr boshlariga oid, shuningdek, Boburiylar saltanatida XVI asr birinchi choragida kechgan voqealardan hikoya qilinadi. Asosan, Bobur Mirzoning ko`rgan

¹ Zahiriddin Muhammad Bobur / Boburnoma: . – T.Yangi asr avlodi, 2015.

kechirganlari hayotiy hikoya qilinadi. Uning qoʻlyozma nusxalari Angilya (London) va Hindiston (Haydarobod) kutubxonalarida saqlanadi. Oʻzbekistonda “Boburnoma”ning Qozon nashridan koʻchirilgan qoʻlyozma nusxalari OʻzR FA Sharqshunoslik institutifondida saqlanadi.”Bu nashr 1857 – yilda turkolog N.I.Ilmipskiy tomonidan Qozonda tipografiya yoʻli bilan oʻzining toʻrt betlik nashr uslublarini koʻrsatgan ruscha soʻzboshisi bilan bosilgan²”.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483 – yilning 14 – fevral sanasida Andijon shahrida, Temuriylar sulolasidan boʻlgan Fargʻona hokimi Umarshayx Mirzo (1461-1494) oilasida tugʻilgan. “Uning bolalik yillari Andijon va uning atrofida oʻtadi³ Bobur tugʻilgan davrida Amir Temur asos solgan katta davlat temuriy shahzodalar tomonidan boʻlib olinishi boshlangan, toj-u tax tuchun kurash avj olgan davr edi. Otasi Umarshayx Mirzo 1494 – yilda kabutarlar mamlakatiga borgan paytda, tasodifan tomdan yiqilib, vafot etadi. Bu haqda Pirimqul Qodirov oʻzining “Yulduzli tunlar” asarida bayon etadi. Bu paytda Bobur Mirzo 12 yoshda edi, endi u otasining oʻrniga hokimyatni egallashi kerak edi. U “Boburnoma” asarida shunday yozadi: “Tengri taolaning inoyati bilan va hazrati on Sarvari koinotning shifoati bilan va chahoryori bosafolarning himmati bilan seshanba kuni ramazon oyining beshida tarix sakkiz yuz toʻqson toʻqquzda Fargʻona viloyatida oʻn ikki yoshda podshoh boʻldum⁴”-deydi.

“Boburnoma” memuar asar boʻlishi bilan bir qatorda ikki xil mavzu – tarixiy va geografik maʼlumotlari jihatidan ilmiy qimmatga ega. Bu asarda Oʻrta Osiyoning qadimiy viloyatlariga quyidagicha taʼrif beriladi. Fargʻona viloyati beshinchi iqlimundur. Uning sharqida Qoshgʻar, gʻarbida Samarqand, janubiy qismida Badaxshonning togʻlari, shimoliy qismida esa burun shaharlar bor. Gʻarbiy qismidagi Samarqand hududidan Sayhun daryosi oqib oʻtadi. Fargʻonaning viloyatining poytaxti Andijondir. Uning oshligʻi vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi boʻlur. Qovun mahalida poliz boshida quvun sotmoq rasm emas. Andijonning noshpotisidan yaxshiroq noshpoti boʻlmas. Movaunnahrda Samarqand ava Kesh qoʻrgʻonidan soʻng, undan ulugʻroq qoʻrgʻon yoʻqdir. Uch darvozasi bor, arki janub tarafida boʻlib, toʻqqiz tarnov suv kirar. Andijondagi qalʼa ichida mahallalar boʻlib, ularning har birida xandaq⁵ bor. Ov qushlarining dogʻi boʻlib, qirgʻovuli behad semiz boʻladi. Rivoyatlarda bir qirgʻovulni toʻrt kishi yeb tugata olmaydi deyiladi. Andijon eli orasida “husn xeyli” bordir. Yusuf Xojakim⁶ musiqada mashhurdir.

Oʻrta Osiyoning yana bir mashhur shahri Oʻshdir. Andijonning sharqiy janubiy tarafida joylashgan. Havosi xoʻb va oqar suvi farovondir. Uning sharqiy janubiy

² Zahiriddin Muhammad Bobur / Boburnoma: . – T Yangi asr avlodi, Toshkent-2015 (4-5bet).

³ Hashimov.K, .Nishonova.S “Pedagogika tarixi” II qism.Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, Toshkent – 2015.

⁴ Zahiriddin Muhammad Bobur / Boburnoma: .Yangi asr avlodi nashriyotu-2015.(6-7bet).

⁵ Xandaq – oʻrta asrlarda suv toʻplanadigan narsa.

⁶ Xoja Yusuf

qismida Baroko`xg`a tog`i bor. Bu tog`da Sulton Mahmudxon bir hujra qurdirgan, men ham tarix to`qqiz yuz ikkida bir ayvonlik hujra soldim. O`shda qalin lol ava gullar ochiladi. Andijonning g`arbiy qismida, undan yetti yig`och masofada Marg`ilon shahri joylashgan. Uning anori va o`rigi ko`p bo`lur. Bir jins anor bo`lib, uni “dona kalon” derlar, uni Samnon anorlariga taqqoslashadi. U yerdagi o`rikka “subhoni” deb nom berishgan ekan. Marg`ilon bilan to`qqiz yig`och masofada Isfara joylashgan. U yerda “Musmir” daraxtlari juda ko`p, asosan bodom daraxti ekiladi. Isfarada uzunligi o`n qarich bo`lgan tosh bo`lib, uni “Sangi oyina”derlar. Isfara viloyati to`rt bo`lakdan iborat: Isfara, Vorux, So`x va Hushyor. Zahiriddin Muhammad Bobur asarda Xo`jandning ovlog`i va qishlog`i yaxshidir. U yerda oq kiyik, bug`u, maral, qirg`ovul ko`p bo`ladi. Xo`jandning tovonida Konibodom joylashgan, uning nomi bu hududda bodomlarning ko`p yetishtirilishi hisobidan olingan.

Zahiriddin Muhammad Bobur butun jahonga mashhur bo`lgan “Boburnoma” asarida o`zining harbiy yurishlari haqida ham yozib o`tgan. 1494 – yilda hokimaytga kelganda, u juda ham yosh bo`lganligi sababli davlat ishlarini boshqarishda oqila va dono onasi Qutlug` Nigor xonim yordam beradi. Bobur hokimyatga kelganidan so`ng, harbiy yurishlarni boshlab yuboradi. 1497 – 1500 – yillarda Samarqand tomon yurish qiladi. Bu harbiy yurishlar u uchun juda ko`p qiyinchilik tug`diradi. Samarqandni egallash uchun juda ko`p harakat qilgan bo`lsada, ammo mag`lubiyatga uchraydi. Bobur Mirzo 1504 – yilga qadar Farg`on ava Samarqand uchun kurashadi, ammo temuriylar o`zaro birlasha olishmaydi. Ularda ichki nizolar juda kuchli bo`ladi, natijada mamlakat inqirozga yuz tuta boshlaydi. Zahiriddin Muhammad Bobur ham tajribali Shayboniixon bilan bo`lgan jangda mag`lubiyatga uchrab, o`z yurtini tark etadi. U omad va baxt izlab Kobul tomon yo`l oladi. Kobulni egallagan Bobur asta-sekin u hududda mavqeyini tiklay boshlaydi. 1511 – yilning kuzida Bobur Ozarbayjon va Eron podshohi Shoh Ismoil Safaviyning harbiy yordamiga tayanib, Samarqanda uchunchi bor egallashga muvaffaq bo`ladi. Ammo uning o`z xalqi e`tiqodi bo`lgan, sunniy mazhabini inkor etishi, kishilarga shia kiyimida ko`rinishi mahalliy aholini undan uzoqlashtiradi. Boburning bobomeros bo`lgan Samarqandda uchunchi marta hukmron bo`lishi ham bir yilga bormaydi. “1512-yilning bahorida Ko`li Malik (Xayrobod va Qorako`l orasida joylashgan mavze)da jang bo`lib o`tadi. Bu hududda bo`lgan jangda Bobur Mirzo shayboniylardan Ubaydulloxon, Muhammad Temur Sulton, Jonibek Sulton va boshqalarning birlashgan qo`shiniga qarshi kurashadi. Ammo kuchlar teng bo`lmaganligi sababli u mag`lubiyatga uchraydi<sup>7</sup>”. Jangdan so`ng Bobur Histori Shodmon tomon chekinadi va ikki shu hududda qiyinchilik bilan hayot kechiradi. 1514 – yilda u Kobulga qaytadi va yerda kuchli qo`shin to`plab, harbiy yurish uchun harakat boshlaydi. U endi Hindistonni bosib olish uchun harakat boshlaydi. 1514-1525-yillar

⁷ Tarixiy manbashunoslik – o`quv qo`llanma, Toshkent – 2005.

davomida Shimoliy Hindiston hududlarini egallash uchun behs marta qo`shin tortadi. So`nggi 1525-yildagina bu ulkan hududni egallashga muvaffaq bo`ladi. Hindistonni egallash orqali Bobur yangi saltanatga asos soldi. Uning buyuk saltanasi g`arbiy hududlarda “Buyuk mo`g`ullar” nomi bilan mashhur bo`lib ketgan bo`lsada, lekin, u Hindistondagi Temuriylar yoki Boburiylar davlati edi.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1530 – yilning 26 – dekabr sanasida Hindiston poytaxti bo`lgan Agra shahrida vafot etdi. Ammo vasiyatiga ko`ra, keyinchalik uning xoki Kobul shahridagi o`zi asos solib, obod qilgan bog`ga ko`mildi. Bu bog` “Bog`i Boburiy” deb nomlandi. Uning qabr toshi keyinchalik chevarasi Nuriddin Muhammad Jahongir (1605-1627) tomonidan o`rnatilgan.

“Boburnoma” yozilish uslub jihatdan Amir Temur qalamiga mansub bo`lgan “Temur tuzuklari”ga o`xshab ketadi. Bu asarda Toshkent, Samarqand, Hitori Shodmon, Chog`aniyon, Kobul, Xuroson poytaxti Hirot hamda Shimoliy Hindistonning XV asr ikkinchi yarmi va XVI asr birinchi o`ttiz yilligidagi voqea-hodisalar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar batafsil yoritib berilgan hisoblanadi. Bu asar mazmunini uch qismga bo`lib o`rganishimiz mumkin.

1. Birinchi qismda Boburiylar sulolasining (1494 – 1504) yillar oralig`ida Farg`ona va Movaunnahrda sodir bo`lgan voqea-hodisalar bayon etilgan. Ya`ni Zahiriddin Muhammmad Boburning otasining o`rniga hokimyatga kelish davri, uning harbiy yurishlari, ayniqsa, Samarqand tomon yurishlari haqida ma`lumot keltirilgan. Shu bilan birga Bobur Mirzo bu qismda Farg`onaning markazi Andijon haqida ham to`xtalib o`tadi. Uning geografik o`rni, joylashuvi, u yerda yetishtiriladigan mevalar haqida ham m`lumot beradi.
2. Ikkinchi qismida esa (1504-1525) yillar oralig`idagi Kobul va Xuroson hududlarda bo`lib o`tgan voqealar bayon etiladi. Bu qismda Bobur Mirzo Kobulga borishi, o`sha hududda o`z hokimyatini o`rnatishi haqida, Samarqand uchun qilgan kurashlari haqida ma`lumotlar yozib qoldirgan.
3. Uchinchi qismda esa (1525-1530) yillar oralig`ida Hindistondagi voqealar haqida gapiriladi.

Shu bilar birga asarda siyosiy voqealarga qo`shimcha tarzda geografik va etnografik ma`lumotlar keltiriladi. Unda Farg`ona vodiysining turk-mo`g`ul qabilalari, ko`chmanchi o`zbek qabilalari qo`shinining tuzilishi, Movaunnahr, Xuroson va Hindiston xalqlarining urf-odatlar, hayvonot dunyosi, nabototi, parrandalari haqida ham batafsil ma`lumot beriladi.

Zahiriddin Muhammad Boburga tegishli “Voqeyi” asaridagi ma`lumotlar to`g`rilik darajasi yuqori hisoblanadi. Chunki unda muallif o`zi ko`rgan, ishtirok etgan voqeo-hodisalarni qog`ozga tushuradi. Dastlab Bobur kitob yozmoqchi bo`lmagan. U Qandahor jangi (1508)dan keyin hayotidagi voqealarni kundalik tarzida yozib boradi. Vaqtlar o`tishi bilan kundalik voqealarni tartibga solib, qayta ishlaydi va kitob holiga

keltiradi. Aynan shu asar “Boburnoma” deb ataladi. Asar haqda u shunday yozadi: “Bu bitiklardin g`araz shikoyat emas, rost hikoyatdurkim, bitibturmen. Bu mastur bo`lg`onlardin maqsud, o`zning ta`rifi emas, bayoni voqei bu edikim, tahrir etibturmen. Chun bu tarixda andoq intizom qililibturkim, har so`zning rostini bitilgay va har ishning bayoni voqeini tahrir etilgay⁸”. Shuningdek asarda muallif ochiqchasiga Movaunnahrda hukm surga boshboshdoqlik, turli siyosiy kuchlarning hokimiyat uchun olib borgan o`zaro urushlari (bu urushlarda Boburning o`zi ham ishtirok etgan) oqibatida dehqonchilik vohalarining xarob bo`lishi, soliq va yig`imlarning ortib borishi haqida ham ma`lumot beradi. O`zidan oldin asarlar yozgan mualliflardan farqli o`laroq Bobur boshidan oxiriga qadar original hikoyanavis bo`lib qoladi. Uning tili juda sodda, unda ko`p uchramaydigan balandparvoz iboralar va maddohlik umuman yo`q. Barcha zamonlarda “Boburnoma” olimlarni o`ziga jalb etgan. Boburning nabirasi Akbarshoh (1556-1605) davrida asar uch marotaba eski o`zbek tilidan forsiy tilga tarjima qilingan. Ular orasida Abdurahmon ismli shaxsning tarjimasi eng mukammal hisoblanadi. Bu tarjima bugungi kunda ham o`z ahamiyatini yo`qotmagan. Asarning qo`lyozma nusxalari ham oz emas. Ular orasida eng yaxshisi Avrangzeb hukmronligi davrida ko`chirilgan Haydarobod nusxasi hisoblanadi. “Asarning qo`lyozmalaridan biri 1714-yilda Buxoroda Temur Po`lat degan shaxs tomonidan sotib olingan⁹”. Boburnoma”ni o`rganishga O`zbekistonlik olimlar ham hissa qo`shishgan. Jumladan 1948-yilda P.Shamsiyev va S.Mirzayevlar asarning ikki jilddan iborat o`zbek tilidagi matnini nashr ettirdilar. 1965-1966-yillarda esa asar uch jildlik asarlar to`plamiga kiritildi. To`rtinchi marotaba esa asar 11989-yilda nashrdan chiqqan. “Boburnoma” golland, ingliz, fransuz, nemis, turk, fors, pushtu va urdu tillariga tarjima qilinib, nashr etilgan. Asarning rus tiliga tarjimasi M.A.Sayle tomonidan amalga oshirilgan va 1958-yilda Toshkentda chop etilgan. Aynan shu tarjima 1982-yilda ikkinchi marta, 1993-yilda uchinchi marta nashr etilgan.

“Boburnoma” – o`zbek mumtoz adabiyoti va tarixshunosligining nodir durdonalaridan biri hisoblanib, nafaqat Boburiylar davridagi siyosiy, ijtimoiy, madaniy voqealar, balki, Zahiriddin Muhammad Boburning ichki dunyosi, hayotiy tajribalari va tafakkurini ham yorqin aks ettiruvchi asar hisoblanadi. Biz asarni o`qish orqali XV-XVI asrlardagi tarixga tushib qolamiz. Bu davrdagi voqealarni o`rganib, tahlil qilish imkoniyati paydo bo`ladi. Shu bilan birga buyuk sarkarda, shoh va shoir Bobur Mirzoning siyosiy faoliyati, harbiy yurishlari, davlat boshqaruv uslubi, shu bilan birga, o`sha davr jamiyatining madaniyati, urf-odatlar, tabiat manzalari, shahar va hududlarning geografik holatini o`rganishimiz mumkin. “Vaqoyi” asarining ahamiyatli tomoni shundaki, u tarixiy haqiqatni badiiy mahorat bilan yoritib beradi. Bobur

⁸ Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma/Nashrga tayyorlovchi P.Shamsiyev, - T:Yulduzcha, 1989. – B.180.

⁹R.A.Arslonzoda, “Manbashunoslik”, Farg`ona: Classic nashriyoti – 2022.

voqealarni xolisona bayon qilib, o'zining yutuq va kamchiliklarini ham berkitmay yozadi. Aynan shu jihat asarning tarixiy manba darajasini ko'taradi. Yana asarda adabiyot, san'at, ilm-fan va madaniyatga bo'lgan e'tibor Bobur Mirzoning har tomonlama yetuk shaxs bo'lganini ko'rsatadi. Umumiy qilib aytganda "Boburnoma" o'zbek xalqining tarixiy xotirasi, ma'naviy merosi va adabiy tafakkurini yuksak darajada namoyon etuvchi bebaho asar hisoblanib, u bugungi kunda ham ilmiy, ma'naviy va tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur / Boburnoma:.. – Yangi asr avlodi, 2015.
2. Hashimov.K, Nishonova.S "Pedagogika tarixi" II qism. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, Toshkent – 2015.
3. Tarixiy manbashunoslik – o'quv qo'llanma.Toshkent – 2005.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur / "Boburnoma".nashrga tayyorlovchi Shamsiyev.P,- T:Yulduzcha,1989.-B.180.
5. Arslonzoda.R.A, "Manbashunoslik", Farg'ona: Classik nashriyoti – 2022.
6. Alimova.D "Manbashunoslik", Toshkent Turon-Iqbol, 2019.